

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAIMBERDIYEV ASQARJON ASROROVICH

MODIFIKATSIYALANGAN TOPSHIRIQLAR ORQALI ONA TILI
DARSLARIDA IQTIDORLILIKNI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Raimberdiyev Asqarjon Asrorovich

Modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali ona tili darslarida iqtidorlilikni
aniqlash va rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 5

Раимбердиев Аскаржон Асрорович

Совершенствование методики выявления и развития одаренности
на уроках родного языка посредством модифицированных заданий..... 23

Raimberdiev Askarjon Asrorovich

Improvement of the methodology for identifying and developing the talent in
native language lessons through modified tasks..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAIMBERDIYEV ASQARJON ASROROVICH

MODIFIKATSIYALANGAN TOPSHIRIQLAR ORQALI ONA TILI
DARSLARIDA IQTIDORLILIKNI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9371 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiyeva Gulbahor Namozovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Yoziyeva Umida Luffullayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" 07 kuni soat 9⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (280 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "04" 07 kuni tarqatildi
(2025-yil "04" 07 daqi 6 -raqamli reyestr bayonnomasi).



R.D. Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d.,
professor

I.B. Kamolov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.d. (DSc), professor

Sh.U. Nurullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tajribasida milliy elitani tarkib toptirish, intellektual resurslarni jamlash va rivojlantirish strategiyasiga ko‘ra bugungi kunda yosh avlod iqtidorliligini aniqlash hamda rivojlantirishga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ta‘limni differensiallashtirish, ta‘lim muassasasi tarkibida iqtidorli o‘quvchilar uchun maxsus guruhlarni tashkil etish, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga doir mualliflik metodikalarini ishlab chiqish, maxsus diagnostik metodikalar asosida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash kabi yo‘nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda. Muhim jihati shundaki, ushbu muammolar ustida ko‘plab davlat, xususiy va jamoatchilik tashkilotlari shug‘ullanib kelishmoqda.

Dunyo mamlakatlaridagi tadqiqot muassasalarida zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablarining diversifikatsiyalashuvi, ijtimoiy, iqtisodiy globallashtirish jarayonlarining kadrlar sifatiga ta‘siri muammolari zamirida shaxs qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishga doir tadbirlar amalga oshirilmoqda. Angliyada maxsus texnika, lingvistik kollejlari, sport va san‘at maktablarini o‘z ichiga olgan iqtidorlilar bilan ishlashga ixtisoslashgan ta‘lim muassasalari tizimi faoliyat yuritadi. Fransiyada ham iqtidorli o‘quvchilar uchun maxsus maktablar faoliyat yuritib, ushbu maktablarda o‘quvchilar faqat IQ testlari orqali sinovdan o‘tkazilib, 130 ball dan yuqori ball to‘plagan talabgorlarga qabul qilinadi. Sharq mamlakatlarida esa ta‘lim mental va etnomadaniy tamoyillar asosida tashkil etib kelinmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda o‘quvchilar intellektual salohiyati va qobiliyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy, psixologik, pedagogik va metodik shart-sharoitlarni yaratish intellektual, ijodiy va ma‘naviy salohiyatini rivojlantirishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda “Bilimlilik, qobiliyatlilik va iste‘dodning rag‘batlantirilishi”¹ ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplar qatoridan o‘rin olgan. Shu bilan birga “Iqtidorli va iste‘dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek, maktab-internatlar tashkil etilishi”² belgilab qo‘yilgan. Mamlakatning intellektual, ijodiy va ma‘naviy salohiyatini tiklashda o‘quvchilarning ona tili bo‘yicha tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi, bu nafaqat ona tili bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning shakllanishini, balki o‘quvchilarning ona tili bo‘yicha iqtidorlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-son farmoni, 2008-yil 15-iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–916-son, 2019-yil 20-fevraldagi

¹ O‘zRQ–637-son 23.09.2020. Ta‘lim to‘g‘risida

² O‘zRQ–637-son 23.09.2020. Ta‘lim to‘g‘risida

“Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4199-son, 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4306-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda o‘quvchilarning ona tili bo‘yicha iqtidorini rivojlantirish vositasida ta‘lim mazmunini takomillashtirish bo‘yicha F. Yo‘ldashev, L.Z. Qorayeva, X.T. To‘lqinova, S. Matchon, R. Safarova, Sh. Mirzakarimova, H. Bakiyeva, R. Jumaniyozov; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining universal savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha B. Adizov, R.A. Qo‘ldoshev, A. Hamroyev, O.P. Aslonova, J. Yo‘ldoshevlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida V.A. Oganessian, O.V. Zimina, A.V. Usova, V.A. Krutetskiy, V.S. Merlin, V.V. Pechenkov, B.M. Teplov, I.A. Zimnyaya, A.N. Leontyevlar tafakkur, uning turlari, ta‘lim jarayonida divergent tafakkurni rivojlantirish; S.P. Redazubov, A.I. Voskresenskaya, K. Xolmovskayalar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda imloviy xatolarga yo‘l qo‘yishlarining oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijiy davlatlarda J. Adamar, A. Puankare, D. Poya, B. Blum, J. Gilford, J. Renzulli, A. Rene kabi olimlar tomonidan ta‘lim jarayonida tahsil oluvchilarning ona tili bo‘yicha qobiliyat darajalarini aniqlashga doir tadqiqotlar o‘tkazishgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti AIF-2/17 “O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirishda modifikatsiyalangan topshiriqlardan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shaxs iqtidorliligi muammosini retrospektiv tahlil qilish asosida muammoning nazariy psixologik-pedagogik aspektlarini ochib berish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tilidan iqtidorini aniqlash va rivojlantirishda modifikatsiyalangan topshiriqlardan foydalanish jarayonining funksional modelini takomillashtirish;

ona tili darslarida modifikatsiyalangan topshiriqlardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga doir metodikani takomillashtirish;

o'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini diagnostik o'rganish va rivojlantirishga doir metodikaning samaradorligini aniqlash hamda metodik tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich sinf ona tili darslarida modifikatsiyalangan topshiriqlardan foydalanish orqali iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirish jarayoni tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini aniqlashga doir diagnostik metodikalar, rivojlantirishga doir modifikatsiyalangan metodikalardan foydalanish mazmuni, shakli, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot muammosiga doir manbalar retrospektiv va qiyosiy tahlili, kuzatuv, ona tiliga doir iqtidorni aniqlash diagnostik metodikalari, matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali ona tili darslarida iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari shaxs iqtidorlilikning pedagogik aspektlarini retrospektiv tahlil qilishga qaratilgan lingvistik intellektning shakllanganligi, idrokning kengligi, psixologik sezuvchanlik, egotsentrik rivojlanishga intilish, konformlilik, kognitiv, lingvistik, emotsional, bilish, motivatsion, psixofizologik, jismoniy va irodaviy sifatlarning spetsifik xususiyatlari asosida aniqlashtirilgan;

modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali ona tili darslarida iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirish modeli strategik modul mazmuniga modifikatsiyalangan topshiriqlarni reprezentatsiyalash, operatsionalizatsiyalash, verifikatsiyalash hamda lingvistik qobiliyatlarni rivojlantirishga proporsional ta'sir etuvchi didaktik komponentlarni qiyosiy aniqlash asosida takomillashtirilgan;

modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali ona tili darslarida iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirish metodikasi differentsiatsiya, motivatsiya va realizatsiya bosqichlarida modifikatsiyalangan diagnostik yondashuvlarning integrativ elementlarini ta'limiy maqsadlar mazmuniga mos yo'naltirish hamda modifikatsiyalangan rivojlantiruvchi metodikaning tashkiliy-motivatsion tuzilmasiga mantiqiy-fikrlashga unlovchi mashqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan;

modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali o'quvchilarning lingvistik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasining samaradorligi lingvoiqtidorlilikning xotira mustahkamligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilishini hisobga olish hamda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, diqqat konsentratsiyasini oshirish va fonetik tushunchalarni shakllantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini aniqlash va rivojlantirish, modifikatsiyalangan topshiriqlar muammolariga doir zamonaviy

yondashuvlar va xorijiy tajribalar hamda ulardan foydalanish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidori shakllanganlik mezonlari va ushbu mezonlarni shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga doir diagnostik metodikalar hamda topshiriqlar modifikatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorliligini aniqlash hamda rivojlantirishga doir pedagogik, psixologik manbalar tahlil qilinganligi, diagnostik metodikalarni modifikatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarga tayanilganligi, pedagogik tadqiqotning empirik tajribalar va matematik statistik tahlil asosida samaradorligi aniqlanganligi, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi haqidagi ma'lumotlarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyat shaxs iqtidorliligi, qobiliyati va uni rivojlantirishga doir manbalar tahlil qilinib, ushbu ma'lumotlar tizimlashtirilganligi, o'quvchilar iqtidorini aniqlashga doir diagnostik metodikalar hamda ona tili topshiriqlarini modifikatsiyalash tamoyillari va pedagogik shartlari asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar iqtidorliligini aniqlash va rivojlantirish jarayonining metodik modeli takomillashtirilganligi, mazkur jarayonga doir metodikaning takomillashtirilganligi, ushbu metodikani amaliyotga tatbiq etishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda ushbu ishlanmalarning boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llaniluvchanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali ona tili darslarida iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari shaxs iqtidorliligining pedagogik aspektlarini retrospektiv tahlil qilishga qaratilgan lingvistik intellektning shakllanganligi, idrokning kengligi, psixologik sezuvchanlik, egotsentrik rivojlanishga intilish, konformlilik, kognitiv, lingvistik, emotsional, bilish, motivatsion, psixofizologik, jismoniy va irodaviy sifatlarning spetsifik xususiyatlari asosida aniqlashtirilganligiga doir xulosalardan "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 391201-sonli nashr guvoohnomasi). Natijada, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga doir tajribalar bilan boyitilishiga erishilgan;

modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali ona tili darslarida iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirish modeli strategik modul mazmuniga modifikatsiyalangan topshiriqlarni reprezentatsiyalash, operatsionalizatsiyalash, verifikatsiyalash hamda lingvistik qobiliyatlarni rivojlantirishga proporsional ta'sir etuvchi didaktik komponentlarni qiyosiy aniqlash asosida takomillashtirilganligiga doir

xulosalardan AIF-2/17 “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar” mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektorning 2023-yil 5-dekabrda 03/4656-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni iqtidorlikni aniqlash va rivojlantirishga doir innovatsion metodikalar bilan boyitilgan;

modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali ona tili darslarida iqtidorlikni aniqlash va rivojlantirish metodikasi differentsiatsiya, motivatsiya va realizatsiya bosqichlarida modifikatsiyalangan diagnostik yondashuvlarning integrativ elementlarini ta’limiy maqsadlar mazmuniga mos yo‘naltirish hamda modifikatsiyalangan rivojlantiruvchi metodikaning tashkiliy-motivatsion tuzilmasiga mantiqiy-fikrlashga unlovchi mashqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilganligiga doir tajribalardan “Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorining 2024-yil 22-noyabrda 04/947-sonli ma’lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayoni o‘quvchilar iqtidorini rivojlantirish va diagnostika qilishga doir metodika asosida takomillashtirilishiga muvaffaq bo‘lingan;

modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali o‘quvchilarning lingvistik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasining samaradorligi lingvistik iqtidorlikning xotira mustahkamligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilishini hisobga olish hamda tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish, diqqat konsentratsiyasini oshirish va fonetik tushunchalarni shakllantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilganligiga doir xulosalardan “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustda 391-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 391201-sonli nashr guvohnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar lingvistik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish jarayoni samarali modifikatsiyalangan diagnostik metodikalar orqali rivojlantirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 139 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va

texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ona tili darslarida iqtidorlilikni tashxislash va rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, bobda shaxs iqtidori muammosiga doir nazariy qarashlar, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning lingvistik iqtidorining psixologik strukturasi, ona tili ta‘limi jarayonida topshiriqlarni modifikatsiyalash tamoyillari va pedagogik shartlarining ilmiy nazariy tahlili keltirilgan.

Iste‘dodli insonlar dunyo aholisining kam qismini tashkil etishiga qaramasdan, juda noyob ixtirolari natijasida tarixga nomlari qolgan va bunday iste‘dod sohiblari haqida juda ko‘plab tarixiy ma‘lumotlar mavjud. Ulardagi iqtidorning yuzaga chiqishiga ba‘zan ma‘lum bir ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy muammolar, ba‘zan oilaviy muhit, ba‘zan esa jamiyat tomonidan ko‘rsatilgan g‘amxo‘rlik va rag‘bat sabab bo‘ladi. Demak, har qanday jamiyat va har bir davrda ham yosh avlod o‘rtasida iqtidorlilikning rag‘batlantirilishi ularning kelajakda voyaga yetib jamiyat taraqqiyoti uchun hissa qo‘shishiga sabab bo‘ladi.

Iqtidor sohiblari mustaqil ijodiy ishlash ko‘nikma va malakalari bo‘lmagani uchun bilimli va tajribali ustozga muhtoj bo‘ladilar. Bu holat, bir tomondan, tajribali ustozlardan ilmiy tadqiqot ishlariga moyilligi bor o‘quvchilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual, ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishni, ikkinchi tomondan, iqtidorli o‘quvchilardan zamonaviy ilmiy-tadqiqot metodlari bilan tanish bo‘lishni, turli xil fan olimpiadalarida, tanlovlarda ishtirok etishni, ijodiy izlanishlarga qiziqish, ilmiy dunyoqarash, mehnatsevarlik shakllangan bo‘lishini taqozo etadi. Faqat shu yo‘l bilan iqtidorli o‘quvchilarda ilmiy tadqiqot ishlariga, turli fan yo‘nalishlarini teran o‘rganishga qiziqishni shakllantirish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etish o‘quvchilarga yangi bilimlar va malakalarga ega bo‘lishiga yordam beradi, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, ilmiy ishini tayyorlash jarayonida analitik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, kelajakdagi hayotiy rejalarini aniqlashga, kasbiy mo‘ljalining oydinlashishiga xizmat qiladi.

Ushbu muammoni tadqiq qilish uchun turli ilmiy qarashlarni o‘rganish muhim hisoblanadi. Ushbu muammo yechimini hal etishda ajdodlarimiz merosini o‘rganish hamda ulardan pedagogik jarayonda rejalashtirilgan maqsadlarda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz merosida komil inson tarbiyasi yetakchi g‘oyalardan biri hisoblanadi. Jumladan, qobiliyat tushunchasi ham komil insonning serqirra aqliy faoliyatlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Buyuk qomusiy alloma, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo‘lishida aql, fikr, sezgilarining o‘rni haqida so‘z yuritarkan, shunday deb yozadi: “Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan

narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmog'i mumkin... Istaklarga mehnat tufayli erishiladi"³. Olimning fikricha, faqat eshitilgan, ko'rilgan yoki umuman sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar shundayligicha idrok qilinmasdan, balki aql chig'irig'idan o'tkazilsa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasini angalatadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina yuzaga chiqishini kuzatishimiz mumkin.

A.G. Maklakov qobiliyatlarni tabiiy yoki odatdagi qobiliyatlar va ijtimoiy-tarixiy kelib chiqqan maxsus qobiliyatlarga ajratadi.

Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi.

Maxsus qobiliyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat.

Xususiy qobiliyatlar deb, inson yutuqlarini amalga oshirish uchun alohida turdagi iste'dod va uning rivoji zarur bo'lgan maxsus faoliyat turlarida aniqlaydigan qobiliyatlar tushuniladi. Bunday qobiliyatlarga musiqa, matematika, lingvistik, texnikaviy, badiiy, adabiy, sportga bo'lgan qobiliyatlarni kiritish mumkin.

Nazariy va amaliy qobiliyatlar bir-biridan birinchisining insondagi abstrakt-nazariy fikrlashga, ikkinchisining esa – aniq amaliy faoliyatga moyilligini belgilab beradilar.

Qobiliyatlar, shuningdek, **o'quv** va **ijodkorlik** qobiliyatlariga bo'linadi. Ular bir-biridan, birinchisining o'qitish samarasini, inson tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishini belgilashi bilan, boshqalarining kashfiyotlar, moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi shakllarini yaratish imkoniyatini belgilashi bilan farq qiladi.

Qobiliyatlar tarkibida ikki guruhdan iborat tarkibiy qismlarni ajratish mumkin. Ayrimlari yetakchi o'rinni egallasa, boshqalari yordamchi bo'lib hisoblanadi. Xuddi shunday, **tasviriy** qobiliyatlar tarkibida yetakchi xossalarning o'rni ko'rish analizatorining yuqori tabiiy ta'sirchanligi – chiziqlar, nisbatlar, shakllar, yorug' va soya tomonlar, ranglar uyg'unligi, marom hissi, shuningdek, rassom qo'lining sensomotor sifatlari, yuqori darajada rivojlangan obrazli xotira va

³ O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. (Tuzuvchi mualliflar: K. Hoshimov, S. Ochil). – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 139 b.

boshqalarga berilgan. Yordamchi sifatlarga esa badiiy xayol xossalari, emotsional mayl, tasvirga emotsional munosabat kabilarni kiritish mumkin.

Pedagogik qobiliyatlarni N.V. Kuzmina, F.N. Gonobolinlar tadqiq qilganlar. Pedagogik qobiliyatlar tuzilishida pedagog odobi, kuzatuvchanlik, bolalarga muhabbat, bilimlarni berishga ehtiyoj, perseptiv, kommunikativ, tashkilotchilik va boshqa qobiliyatlar majmuasi etakchi sifatlar o'rnini egallaydi. Yordamchi sifatlarga artistlik mahorati, notiqlik, hazilkashlik va boshqalar kiradi.

Ular pedagogik qobiliyatlar tizimi quyidagi qismlarni kiritganlar: didaktik qobiliyat; akademik qobiliyat; perseptiv qobiliyat; nutqiy qobiliyat; avtoritar qobiliyat; kommunikativ qobiliyat; pedagogik xayol; diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Qobiliyat deb, insonni u yoki bu faoliyatning samarali bajarilish imkoniyati bilan ta'minlovchi layoqatlarning o'ziga xos uyg'unligiga aytiladi. Ushbu ta'rifda qobiliyatga bog'liq ravishda faoliyatning samarali bajarilishi emas, balki faqat shunday bajarilishi mumkin bo'lgan imkoniyatga e'tibor qaratish lozim. Faoliyatni samarali tarzda amalga oshirish uchun muvofiq keladigan qobiliyatlar uyg'unligining mavjudligi emas, balki zarur bilim va ko'nikmalarning egallanganligi ham muhimdir. Qobiliyat faqat u yoki bu faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini belgilaydi, bu imkoniyatning joriy qilinishi esa muayyan qobiliyatlarning rivojlanish darajasi va qanday bilim va ko'nikmalarning egallanganligi bilan belgilanadi.

Shaxs iqtidorining yuzaga chiqishida va umuman iqtidorlilikda intellektning o'rnini alohida. Shaxs intellektual rivojlanishi va intellekt turlari juda ko'plab psixolog va pedagog olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan. Jumladan, amerikalik psixolog Govard Gardner intellekt xususiyatlarini o'rganib chiqqan va u "Ko'p intellekt nazariyasi"ni ishlab chiqqan. Ushbu nazariyaga ko'ra shaxs intellekti bir qancha turlarga ega va ular o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Govard Gardner o'z tadqiqotlari natijasida quyidagi intellekt turlarini ajratib ko'rsatadi:

Lingvistik intellekt – bu intellekt turi shaxsning til birliklari va vositalaridan samarali foydalana bilishida, ona tili yoki xorijiy tilni mukammal o'zlashtira olishida hamda fikrlarini nutqi orqali batafsil bayon eta bilishida namoyon bo'ladi. Lingvistik intellekt sohiblari so'zlardan o'z o'rnida samarali foydalanish bilan bir qatorda ijodiy foydalanish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Shunga ko'ra shoirlar, yozuvchilar yoki notiqalar lingvistik intellekt egasi bo'ladilar, deyish mumkin.

Mantiqiy-matematik intellekt – bu intellekt turi matematik hisob-kitoblar, raqamlar bilan ishlash imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mantiqiy intellekt egalari shaxmat, boshqotirmalar yechimida muvaffaqiyatlarga erisha oladilar. Shuningdek, ushbu intellekt turi insonning yoshi, tajribasi, bilimlarni o'zlashtirishi bilan rivojlanib boradi.

Vizual-fazoviy intellekt – tashqi olamning vizual obrazlarini o'z ongida aks ettirish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Vizual-fazoviy intellekt san'at va fan sohalarida, uch o'lchamli ma'lumotlar bilan ishlash jarayonida ijobiy yordam beradi.

Vizual-fazoviy intellekti yaxshi rivojlangan insonlar haydovchi, uchuvchi sifatida oson natijalarga erishadi. Agarda u ijodkor bo'ladigan bo'lsa, musiqachidan ko'ra arxitektor, haykaltarosh sifatida ko'proq muvaffaqiyatlarga erishadi.

Motorik-harakat (kinestik) intellekt – inson tana harakatini boshqarishi, qo'l, oyoq, gavda harakatlaridan to'g'ri foydalana bilish kabilarga yordam beradi. Bunday intellekt egalari asosan sport sohasida, teatr san'ati, raqs san'ati sohalarida muvaffaqiyatga erishadilar.

Musiqaviy intellekt – musiqani anglash, musiqa haqida fikrlash, musiqiy obrazlarni anglash imkoniyatini beruvchi intellekt turidir. Kuchli musiqiy intellektga ega bo'lgan insonlar musiqani anglash bilan bir qatorda uni yaxshi eslab qoladilar, uni qalban his eta oladilar. Musiqa ularning miyasida doimiy ravishda birga yuradi.

Shaxslararo intellekt – insonga shaxslararo munosabatlarni tartibga solib turishga, muloqot o'rnatish imkoniyatlarini kengaytirishga, jamoaga kirishimlilikni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Shaxslararo intellekt insonlar bilan ishlaydigan kasb egalari, jumladan, shifokor, o'qituvchi, sotuvchi, jurnalist kabi soha egalari uchun juda qo'l keladi.

Shaxs ichki intellekti – shaxsning ichki imkoniyatlarini ifodalovchi intellekt turi bo'lib, u shaxsning irodaviy sifatlarini, mustaqilligini, refleksiv qobiliyatlarini, o'z-o'zini anglash imkoniyatlarini ifodalaydi. Bunday intellekt insonga o'z faoliyatiga chetdan nazar tashlash imkoniyatini yaratib beradi va psixologiya, pedagogika, ilmiy tadqiqotlar sohasida o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga yordam beradi.

Naturalistik intellekt – tabiat bilan muloqot qilishni, tabiatni o'rganishni sevuvchi insonlarning intellekt tipi bo'lib, bunday intellekt egalari tabiiy bilimlar sohasi vakillari, tabiatshunoslar, biologlar ko'proq chiqadi. Ular o'zlarini tabiat bilan bir butun holda his etadilar. Insoniyat evolyutsiyasida ushbu intellekt uning yashash uchun kurash tajribasini o'zlashtirishida muhim o'rin tutgan.

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Lingvoiqtidorlik – bu kognitiv, kommunikativ va konstruktiv qobiliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi o'quvchilarning til aspektlarini o'zlashtirish, muloqot jarayonida ulardan mustaqil foydalanish, mutaqil ravishda ifodali nutq tuza olish va nostandart vaziyatlarda til ko'nikmalaridan samarali foydalana bilishga doir layoqatlari yig'indisidir.

Lingvoiqtidorli o'quvchilar boy nutqi, yuqori darajada rivojlangan lingvistik ko'nikmalari, fikrini erkin ifodalay bilishi, chiroyli va mazmunli nutq idrok etishi, so'zlardan o'rinli foydalana bilishi hamda yuqori darajada shakllangan lingvistik sezgirligi bilan ajralib turadi.

Modifikatsiyalar (lot modifi catio, modus – o'lchov, ko'rinish va facio qilish) – tashqi muhit omillari ta'sirida bir xil genotipga ega bo'lgan organizmlar o'rtasida vujudga keladigan fenotipik farqlardir. Ya'ni predmet yoki hodisaning

asli mohiyati saqlangan holda yangi xossalar paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladigan shakliy o'zgarishini bildiradi.

Pedagogika sohasida ham modifikatsiyalangan metodikalar, test yoki topshiriqlardan keng foydalaniladi. Jumladan, tadqiqotimiz davomida o'quvchilardagi lingvistik iqtidorlilikni diagnostika qilish va rivojlantirishda bir qator psixologik metodikalar, testlardan modifikatsiya qilgan holda foydalanish maqsad qilingan.

Modifikatsiyalangan metodikaning ishonchliligi psixodiagnostik metodikalarning muhim psixometrik ko'rsatkichi hisoblanadi. Metodikaning ishonchliligi – metodika yordamida barqaror, qat'iy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

Modifikatsiyalangan metodikalarning natijalarini nazorat qilish murakkab omillarga bog'liq va bu quyidagilardir: asbob-uskunalarining o'lchov sifati; psixologik testlarning doimiy relevant tavsifi; sinaluvchining ko'rsatmalarni to'g'ri tushinishi; sinaluvchining xulqi, xatti-harakati; sinaluvchining dolzarb psixologik holati.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida modifikatsiyalangan topshiriqlar orqali o'quvchilar lingvistik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanib, unda bugungi kunda pedagogik tizimni modellashtirish masalasi ilmiy tadqiqotlar tizimida yetakchi tendensiya sifatida namoyon bo'lishi, shunga ko'ra ilmiy tadqiqot ishimiz maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish jarayonining funksional modelini ishlab chiqishga harakat qildik.


Pedagogik ilmiy tadqiqotlar jarayonida modellashtirish usulidan keng foydalanilib, u – yaratilayotgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat. Pedagogik faoliyatda modellashtirish obyektlari sifatida pedagogik jarayon, pedagogik vaziyat, pedagogik tizim bo'lishi mumkin

Bugungi kunda pedagogik tizimni modellashtirish masalasi ilmiy tadqiqotlar tizimida yetakchi tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunga ko'ra ilmiy tadqiqot ishimiz maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish jarayonining funksional modelini ishlab chiqishga harakat qildik. Mazkur model beshta moduldan iborat tarzda tuzildi (1-rasm): maqsad moduli; metodologik modul; strategik modul; diagnostik modul; natija moduli.

Maqsad modulida modelni ishlab chiqish va amaliyotda foydalanishdan ko'zlangan maqsad o'z ifodasini topgan.

Ushbu maqsadni belgilab olishda ijtimoiy ehtiyojlar, subyektiv ehtiyojlar hamda davlat ta'lim standartlari talablari inobatga olinadi.

Modelni ishlab chiqishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar insonning jamiyat a'zosi sifatida sog'lom muloqotga kirishuvi, iqtidorlilikni rivojlantirish, muloqot jarayonida lingvistik me'yorlar va birliklardan o'rinli foydalanishga bo'lgan ehtiyojlarni qamrab oladi.



1-rasm. Ona tili darslarida o'quvchilar lingvistik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish modeli

Shaxsning subyektiv ehtiyoji sifatida esa har bir insonning muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoji, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun chiroyli, mazmunli va yoqimli nutqqa ega bo'lish, o'z iqtidorini namoyon etish va rivojlantirishga doir ichki ehtiyojlari hisobga olinadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga bo'lgan davlat talablari sifatida o'quvchilardagi iqtidorlilikni aniqlash va rag'batlantirish tizimini rivojlantirish, ona tilidan o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan minimal talablar inobatga olingan bo'lib, ushbu talablar davlat ta'lim standartlari va boshqa ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Yuqorida bayon etib o'tilgan lingvistik iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirishga doir ijtimoiy va subyektiv ehtiyojlar, davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, modelni ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsadni quyidagicha belgilab oldik: *“Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar lingvistik iqtidorlilikini aniqlash va rivojlantirish jarayonini tizimlashtirish”*.

Modelning navbatdagi moduli metodologik modul bo'lib, ushbu modulda o'quvchilarda lingvistik iqtidorni aniqlash va rivojlantirish jarayoniga tegishli metodologik masalalar o'z ifodasini topgan.

Model maqsadini amalga oshirish jarayoniga doir quyidagi vazifalar belgilab olindi:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tiliga doir iqtidorlarini aniqlashtirish va rivojlantirish jarayonini tizimlashtirishga doir tajribalarni umumlashtirish;

boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik iqtidorini diagnostik o'rganish;

o'quvchilarning lingvistik iqtidorini rivojlantirishga doir mashqlarni tizimlashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik iqtidori shakllanganlik mezonlari va darajalarini aniqlashtirish;

tadqiqot muammosiga doir modelni amalga oshirishdan kutiladigan natijani belgilab olish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda lingvistik iqtidorlilikni aniqlashtirish va rivojlantirishga doir modelni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi: tizimlilik; shaxsga yo'nalganlik; ona tiliga doir iqtidorlilikni rag'batlantirish; ta'lim jarayonida shaxs individual va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar iqtidorlilikini aniqlash va rivojlantirish jarayonida quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi: ta'limga individual yondashuv; ta'lim mazmuniga differensial yondashuv; ona tili ta'limiga tizimli yondashuv; boshlang'ich ta'limga integrativ yondashuv.

Modelning strategik moduli o'z ichiga uni amalga oshirish strategiyasiga doir jarayonlarni, foydalaniladigan metodikani hamda maqsad va erishiladigan natijalarni tavsiflovchi mezonlarni qamrab olgan.

Modelning natija modulida modelni amalga oshirish natijasida quyidagi natijalarga erishiladi: *“Lingvistik iqtidori rivojlangan boshlang'ich sinf o'quvchisi”*.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi lingvistik iqtidorni aniqlash va rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: diagnostik bosqich; differensiallashtirish bosqichi; motivatsiya bosqichi; realizatsiya bosqichi.

Diagnostik bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik iqtidorlikning shakllanganlik darajasi aniqlashtiriladi. Ushbu maqsadda Zivert testi va boshqa diagnostik metodikalardan modifikatsiyalagan holda foydalaniladi.

Differensiallashtirish bosqichida tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan mashqlar o'quvchilarda lingvistik iqtidor shakllanganligiga ko'ra differensiallashtirib chiqiladi. Buning uchun mashq soddalashtiriladi yoki mashqni bajarish uchun qo'shimcha yordamchi materiallar tayyorlanadi. Iqtidorli o'quvchilar uchun esa mashq murakkablashtiriladi yoki mashqni bajarishga doir qo'shimcha materiallar tayyorlanadi.

Motivatsiya bosqichi iqtidorlikni rivojlantirish uchun muhim bosqich bo'lib ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilar bilan kirish suhbatini o'tkazadi, iqtidorlikni rag'batlantirishga doir, topshiriqni bajarishda yutuqlarga erishishga doir taqdirlashlar haqida ma'lumot beriladi. Yoki o'quvchilarga chiroyli nutqqa doir audio materiallar qo'yib eshittiriladi.

Realizatsiya bosqichi asosiy bosqich bo'lib, o'qituvchi tayyorlagan materiallar dars davomida qo'llaniladi va o'quvchilarda iqtidorlikni rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Tayyorlangan mashqlar o'quv materiallari va dasturiga muvofiq qo'llaniladi.

Realizatsiya bosqichida qo'llaniladigan metod va metodikalar modelning metodikalar deb nomlangan bo'limida o'z ifodasini topgan. Ushbu metodika quyidagi bo'limlarga bo'lingan holda tizimlashtirilgan:



2-rasm. O'quvchilarda iqtidorlikni aniqlash va rivojlantirish metodikalari tasnifi.

Demak, mazkur metodika ikkita asosiy bo'limdan iborat:

1-bo'lim: modifikatsiyalangan diagnostik metodikalar.

Zivert testi;

O'quvchilar faol so'zlar lug'atini aniqlash metodikasi.

2-bo'lim: modifikatsiyalangan rivojlantiruvchi metodikalar.

Modifikatsiyalangan rivojlantiruvchi metodikalar o'z navbatida quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

Lug'at boyligini oshirishga doir modifikatsiyalangan mashqlar;

Grafik diktant;

Morfologik iqtidorni rivojlantirishga doir modifikatsiyalangan mashqlar;

So'z yasalishiga doir iqtidorni rivojlantiruvchi modifikatsiyalangan mashqlar;

Matn tuzish (sintaksis)ga doir iqtidorlarini rivojlantiruvchi modifikatsiyalangan mashqlar;

